

EKZISTENSIALIZMDA BESH TA ASOSIY MAVZU

Djurayev G'olib Abdurasulovich

ALFRAGANUS UNIVERSITY, katta o'qituvchisi

jorayev2144@gmail.com

O'zining misli ko'rilmagan da'vosiga qaramay, ekzistensializm G'arb falsafa tarixida hech bo'lmaganda Suqrot dan (miloddan avvalgi 469-399) boshlanuvchi an'anadir. Bu falsafaning "o'z-o'ziga g'amxo'rlik" (epimeleia heautou) sifatidagi amaliyotidir. Uning asosiy e'tibori nazariy haqiqatlarning mavhum to'plamiga emas, balki to'g'ri harakat qilish usuliga qaratilgan. Afina generali Laches va Platonik suhbatidan anglashimiz mumkin-ki, Suqrot falsafasining hayratda qoldiradigan jihati uning ta'limoti emas, balki uning ta'limoti va hayoti o'rtasidagi uyg'unlik ekanligidadir. Suqrotning o'zi esa Afina sudini butun umri davomida ogohlantiradi-ki, ular o'zlariga o'zlarini hamma narsadan ustun qo'yishni o'rgatadigan boshqa odamni osongina topa olmaydilar.

Tafakkur taraqqiyoti silsilasida zamon va makonning ta'siri natijasi o'laroq turli g'oyalar va falsafiy qarashlarning vujudga kelishini falsafa tarixi sarvaraq lari orqali bilib olish bilan birga o'zimiz yashayotgan davr, joiz bo'lsa "Biz mavjud" bo'lgan zamon va makonni anglash hamda mushohada yuritish doim fikrlarning xilma xilligi bilan jozibador bo'lib kelgan. Biz mavjud bo'lgan borliqda mavjudligimiz va mas'uliyatimiz nimalardan iborat ekanligini falsafiy tahlil qilish yo'lida ushbu maqolada XX asrning ikkita jahon urushini guvohi bo'lgan fransuz eksistensializmi namoyondalari bo'lmish Jan Pol Sartr hamda Albert Kamyularning falsafiy-axloqiy qarashlarida insonning mavjudligi, mas'uliyati, erkinligi va "chegaradosh vaziyat"dagi tanlovi haqida fikr yuritsak.

Mislsiz texnologik taraqqiyot, buyuk kashfiyotlar asrida yashagan buyuk fransuz faylasuflari Jan Pol Sartr va Albert Kamyularni tafakkurida bunchalik xavotir, jamiyat ma'naviy borlig'ining tubanlikka yuz tutishini aks ettirgan falsafiy haqiqatlarini o'z asarlarida ifoda etib berishiga, inson hahotining mohiyatini izlashni

inkor etib, hayotning mazmunsiz hilqat sifatida talqin etishidan ma'lum bo'ldiki, farovon turmush tarzi, ilm-fan, sanoatning rivojlanishi bilan ma'naviy yuksalish o'rtasida bog'liqlik yo'q ekan. Kamyuning absurd olami o'zgacha tafakkur shaklida emas, balki bugungi kunimizda ham mavjud insonning beburdligini ko'rib turib ko'rmaslikka olishimiz mumkinmi?

Ekzistensializm da mavjudlik mohiyatdan oldin turadi, ya'ni inson hayotini mohiyatidan oldin uning mavjudligi muhimdir. Inson o'z mohiyatini qidirishidan oldin mavjudligini anglab olishi zarur bo'ladi. Ekzistensializm so'zi lotincha "mavjudlik" sozidan olingan bo'lib, mavjudlik falsafasi ham deb yuritiladi. Ekzistensialistlar inson voqeeligining oraliqda ekanligini, qat'iy mustaqil emasligini, o'zga nimagadir qaramligini ta'kidlaydilar. Anashu "o'zga" ekzistensialistlar tomonidan har xil tushuniladi. Diniy ekzistensialistlar uni e'tiqod orqali kashf etiladigan "transendensiya" deb belgilaydilar. Dahriy ekzistensialistlar uchun esa "hechlik" - narsalarga tirband borliqda lang ochilib turga puchmoq. [5]

Ekzistensializmning asoschisi Seren Kerkegorni diniy ekzistensialist sifatida bilamiz va uning izdoshlari K. Yaspers, G. Marsel, N.A. Berdyayev, L. Shestovlarda ham ta'limotning davomiyligini uchratishimiz mumkin. Ekzistensialist faylasuflar asosan umumiy borliq bilan emas, balki inson borlig'i bilan shug'ullanadilar. Ular aynan insoniy borliqni "ekzistensiya" deb atashadi. Masalan, ushbu falsafiy oqim namoyondasi Nikolay Berdiyayev - "Mening falsafamdagi o'ziga xoslik eng avvalo shundaki, men unga borliqni emas, erkinlikni asos qilib oldim." [2] deydi. Insoniy borliqning mavjudligini uning mutloq erkinligida namoyon bo'lishini tushuntirishga harakat qiladi. Shu yusinda fransuz ekzistensialistlari ham insoniy mavjudlikni erkinlikda ko'rishida. Ya'ni Axloq falsafasida ixtiyor erkinligi har bir insonda biror-bir voqeylikka nisbatan axloqiy tanlovni yuzaga keltiradi. V.Vindelband fikricha "haqiqiy erkinlik" nima ekanligini hali hanuz bilmasakda "erkinlik nomi ostida ko'p ulug' ishlar amalga oshirilgan, lekin, aynan shu nom bilan qanchadan qancha gunohlar qilingan". [3] Ekzistensializm da aynan mutloq anglashilmagan "ekzistensiya" o'zida haqiqiy erkinlikni qamrab oladi. Mavjudlik mohiyatdan oldin bo'ladi. Inson o'z erkinligini

mavjudligi orqali namoyon etadi. Bu mutloq erkinlikni fransuz ekzistensialisti J.P.Sartr o'zining "Ekzistensializm to'g'risida" risolasida bayon qiladi. Inson o'zini mavjud bo'la boshlaganligidan keyingina ixtiyorini namoyon etadi, uning erki mavjudligidadir. Inson o'z ixtiyor erkinligini mavjudligida ifoda etgandan so'ng mohiyatini tanlaydi. J.P.Sartr ta'biri bilan aytganda "o'zidan nima yasasa, u o'shadir".[9]

Ekzistensializm da beshta asosiy mavzu mavjud. Ular "ekzistensialist" ning qat'iy ta'rifini tashkil etish o'rniga ekzistensialist faylasuflar orasida ko'proq an'anaviy o'xshashlikni (mavzularning kesishishi va bir-biriga mos kelishi) ifodalaydi.

1. **Mavjudlik mohiyatdan oldin.** Siz (sizning mohiyatingiz) teskari emas, balki sizning tanlovlaringiz (sizning mavjudligingiz) natijasidir. Mohiyat taqdir emas. Siz o'zingiz qanday bo'lsangiz, shundaydiz.

2. **Vaqt muhim ahamiyatga ega.** Biz asosan vaqtga bog'liq mavjudotlarmiz. O'lchanadigan, "soat" vaqtidan farqli o'laroq, yashalgan vaqt sifat hisoblanadi: "hali emas", "allaqachon" va "hozirgi" bir-biridan ma'no va qiymat jihatidan farq qiladi.

3. **Gumanizm.** Ekzistensializm - bu shaxsga qaratilgan falsafa. Garchi fanga qarshi bo'lmasa ham, uning diqqat markazida yuzakilik va konformizm uchun ommaviy jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy bosimi sharoitida inson shaxsining o'ziga xosligi va ma'nosini izlashga qaratilgan.

4. **Erkinlik / mas'uliyat.** Ekzistensializm erkinlik falsafasidir. Uning asosida biz hayotimizdan chekinishimiz va qilgan ishlarimiz haqida o'ylashimiz mumkin. Shu ma'noda biz har doim o'zimizdan "ko'proq"miz, o'zimizdan tashqari odamlar uchun ham mas'ulmiz. Lekin biz erkin bo'lganimizdek mas'uliyatlimiz.

5. **Axloqiy mulohazalar asosiy hisoblanadi.** Har bir ekzistensialist "erkinlik" kabi axloqni o'ziga xos tarzda tushunsa ham, asosiy tashvish bizni shaxsiy hayotimiz va jamiyatimizning haqiqiyiligini tekshirishga taklif qilishdir.[6]

J.P.Sartr fikricha mavjud bo'lish mohiyatdan avval ekan demak inson o'zining mavjud bo'lishi oldida mas'uldir. Demak ekzistensializm har qanday insonni o'z mavjudligini anglashi orqali mas'uliyatni o'ziga yuklaydi. Inson o'z

shaxsiyati uchun mas'uldir deganda ekzistensializmni subyektivizm, nigilizm va individualizmga ayblashga uringanlarga qarshi Sartr ekzistensiya insoniy subyektivlik chegarasidan chiqib ketishi mumkin emas deydi. Ekzistensiyadagi mavjud erkinlik yovuzlikni tanlashi mumkin emas, agar unga biror bir tashqi mohiyatlar ta'sir etmasa. Inson o'z oldidagi mas'uliyatini anglagani holda albatta boshqalar uchun ham manfaatli tanlovni qiladi. Mana bu ekzistensialistlarning tushuntirmoqchi bo'lgan mavjudlik falsafasidir.

O'rni kelganda Sartr ekzistensialistlarni ayblovchilarning asosiy ayblovi "go'yoki inson hayotining yomon tomonlarini alohida diqqat bilan qarashlari"da deb biladi. Emishki, ekzistensializm adabiyoti insonni yovuzlikka chorlaydi. Yo'q, o'z mavjudligini anglab yetmagan insonning fojeasi shunday haqiqat-ki, bu haqiqatni ko'ra boshlagan inson yovuzlik, tubanlik orasida ekanligidan hech bo'lmaganda xabar topishi uchun bu falsafiy metod adabiyotga ko'chadi.

Yana bir fransuz ekzistensialist ma'rifatparvari Albert Kamyuning falsafiy qarashlarida erkinlik tushunchasiga o'zi xos munosabat bildiriladi. Erkinlik, bu - yolg'on gapirmaslik huquqidir. Yolg'on gipirish ixtiyor erkinligi natijasi bo'lolmaydi va ahloqiy tanlovda ham haqiqatni yashirish inson erkinligi asosida sodir bo'lmaydi. Ekzistensiya - inson erkinligini o'ziga qamram olib, ichki tanlovda mutloq erkin va hech qanchon yozuvlikni tanlamaydi. A. Kamyu fikricha, "erkin matbuot yaxshi ham, yomon ham bo'lishi mumkin. Erksiz matbuot faqat yomon bo'ladi". Faylasuf o'zining "Begona", "Vabo", "Kaligula", "Tubanlashuv" kabi asarlarida mushohada yuritib, qahramonlari orqali erkinlikning ahloqiy tanlovda asosiy rol o'ynashini ochib beradi.

P.Sartr fikricha ekzistensiya chegaradosh vaziyatda yaqqol namoyon bo'ladi, masalan, inson o'lim va hayot oralig'ida haqiqiy subyektiv mas'uliyatini, ahloqiy tanlovini, vijdoni oldida ochiq ifoda etadi.

Xulosa qilib aytganda zamonaviy g'arb falsafasining inson mohiyatini ilmiy-falsafiy tahlil qilinishida fransuz ekzistensializmi alohida e'tiborga muhtoj. Ekzistensializmning ahloqiy tafakkur taraqqiyotida ahamiyati beqiyos.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Каму, А. (2023). Begona; Vabo; Yon daftarchalar; hikmatlar. Yoshlar matbuoti.
2. Бердяев, Н. (1991). Самопознание. М., Книга, 56 б.
3. Виндельбанд, В. (2000). О свободе воли. Минск-Москва, «Харвест»-АСТ, 8 б.
4. Yo'ldoshev, S. va boshqalar. (2002). *Yangi va eng yangi davr G'arbiy Yevropa falsafasi*. Sharq. Toshkent.
5. Sher, A. (2010) *Axloqshunoslik*. O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati. Toshkent, 126 b.
6. Thomas Flynn. (2006). *Existentialism: A Very Short Introduction*. Oxford University press, 8 p.
7. Zotov, A. (2001). *Современная западная философия*. Высшая школа. Москва.
8. Ruzmatova, G. (2021). Seren Kergegor ekzistensializmining mohiyati. *Academic Research in Educational sciences. Issue 3(Volume 2)*
9. Sher, A. (2011). Ekzistensializm va Sharq falsafasi. Jahon adabiyoti, №10(173) oktyabr.
10. Sartr, J. (1997). Ekzistensializm to'g'risida. Jahon adabiyoti, 5-son, dekabr, 183 b.
11. Falsafa: ensiklopedik lug'at. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 2010.